



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSİYAGA TASHRIF BUYURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga keldi.

“Vnukovo” aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidentining yordamchisi Maksim Oreshkin va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

8-oktabr kuni MDH sammitining asosiy

tadbirlari bo‘lib o‘tadi. Kun tartibidan Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari o‘rin olgan.

O‘ZA

Biz va dunyo

O‘ZBEKISTON — MDH: UMUMIY TARAQQIYOT VA XAVFSIZLIK MAKONI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga bordi. Mamlakatimiz yetakchisi MDH Davlat rahbarlari kengashining 7-8-oktabr kunlari bo‘lib o‘tadigan navbatdagi majlisida ishtirok etadi.

MDH davlatlari va institutlari bilan aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan.

O‘zbekiston MDH tashkil topganidan buyon a‘zo davlatlar bilan barcha yo‘nalishda samarali hamkorlikni mustahkamlab, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, iqtisodiy aloqalarni ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama

rivojlantirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Hamdo‘stlik doirasida O‘zbekiston tashkilotining 65 ta tarmoq tuzilmasi faoliyatida faol qatnashyapti. Ularning maqsadi milliy manfaatlariga to‘liq javob beradi. O‘zbekistonning MDH huzuridagi doimiy vakolatxonasi instituti faoliyat yuritmoqda.

Davomi 2-betda


MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI



Mazkur maqola Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.



YANGI O‘ZBEKISTON: YANGI PARLAMENT SAYLOVLARI SARI

Bundan bir yarim yil ilgari mamlakatimiz tarixida ilk bor umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilangani yangi O‘zbekiston hayoti barcha sohalarining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Xususan, zamonaviy konstitutsiyaviy norma va umume‘tirof etilgan xalqaro saylov standartlari asosida milliy saylov qonunchiligi tubdan takomillashtirildi.

Bu muhim omil saylov jarayonlarining yanada ochiq va oshkora o‘tishi hamda O‘zbekistonning jahon mamlakatlari demokratiya indeksidagi ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga erishish imkonini oshiradi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Demokratik islohotlar yo‘li — biz uchun yakka-yu yagona va eng to‘g‘ri yo‘ldir”.

YANGI PARLAMENT SAYLOVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari, xalqaro majburiyatlar va o‘tgan saylov yakunlari bo‘yicha tavsiflar asosida saylov qonunchiligiga bir qator muhim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgani bejiz emas. Chunki yangilangan saylov qonunchiligi saylov komissiyalari va aholining saylov madaniyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarning o‘z elektorati bilan ishlash tizimini yanada mukammallashtirish,



partiyalarning siyosiy faolligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bo‘ljaj parlament saylovining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘tish mumkin.

Birinchi xususiyati: Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov O‘zbekiston tarixida ilk bor aralash asosda, ya’ni majoritar-proporsional saylov tizimi bo‘yicha o‘tkaziladi.

Davomi 4-betda

Aks-sado

YETTI MUHIM TASHABBUS

o‘quv-tarbiya jarayonidagi yangilanishlarga zamin bo‘ladi

Xalqimiz hamisha ustozlarni e‘zozlab, hurmat-izzatini joyiga qo‘yib kelgan. “Ustoz otangdan ulug‘” degan naql ham bejiz aytilmagan. Zero, ko‘z nuri, qalb qo‘ri, butun borlig‘ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnati yuksak tahsinga loyiq.

Dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, xalqimizga, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodga bezavol yetkazish yo‘lida chinakam fidoyilik ko‘rsatib, mehnat qilayotgan ustozlarga hurmat-ehtiromda bo‘lish, maslahat va o‘g‘itlariga amal qilib yashash insoniylikning yuksak namunasidir.

Davomi 2-betda

HAM O‘QIB, HAM ISHLASH IMKONIYATI

Islohotlar amalda

Bundan uch-to‘rt yil oldin mahalla hududida yirik ip-yigiruv korxonasi ish boshlagandi. Ko‘pchilik qatori Nurbek ham shu joyga ishlash istagida bordi. Oson ishlab ketaman deb o‘ylagandi. Unday emas ekan. Kattagina zavoddagi zamonaviy uskunalarni ko‘rib, hayratda qoldi. Muhimi, bu yerda ishlashni istagan kishi texnikalarni ishlata bilishi lozim edi. Ilgari bunday joyda ishlab ko‘rmagani bois, ikkilanib qoldi. Ish o‘rganish uchun nima qilish kerakligiga qiziqqandi, kimdir shu yaqin atrofdagi kollejda ham sohaga qiziquvchilar o‘qitilayotganini aytib qoldi.



Hujjatlarini ko‘tarib, kollejga yo‘l oldi. Faqat uni bir jihat o‘ylantirib turardi: darslarda muntazam qatnashishga imkoniyati yo‘q. Buyog‘i tirikchilik tashvishi. Qanday bo‘larkan? Kollej ma‘muriyati uning oilaviy ahvolini to‘g‘ri tushungan holda dual ta’limda o‘qishni maslahat berdi. Bu qanday ta’lim shakli ekanini unchalik anglamasa-da, yigitga ma’qul keldi.

Kollej imtihonlaridan a’lo baholarga o‘tib, o‘qishga qabul qilingan Nurbek dual ta’lim nimaligini keyin tushunib oldi. Bunda ham o‘qib, ham ishlash imkoniyati mavjud edi. Yana bir jihati: bu yerda ta’lim olishni boshlagach, korxonaga ham ishga qabul qilindi. Endi o‘qish va ishni birga olib boradigan bo‘ldi.

Davomi 5-betda

Taraddud

OLIMPIYA SHAHARCHASI O‘ZBEK SPORTNING OLAMSHUMUL YUTUQLARI RAMZIGA AYLANADI

Poytaxtimizda “Toshkent — 2025” yoshlar Osiyo va paraosiy o‘yinlariga qay darajada tayyorgarlik ko‘rilayotgani bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbir doirasida Osiyo paralimpiya qo‘mitasi prezidenti Majid Rashid boshchiligidagi rasmiy delegatsiya vakillari ishtirokida musobaqalar oldidan ko‘rilayotgan umumiy tayyorgarlik, tashkiliy ishlar bo‘yicha yig‘ilish, taqdimotlar, matbuot anjumani o‘tkazildi.



Matbuot anjumanida yurtimizda sport va jismoniy tarbiya sohasini, paralimpiya harakatini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, ularga inklyuziv sharoit yaratish bo‘yicha qilinayotgan ishlar haqida so‘z yuritildi.

Komissiyamizda “sportlar uchburchagi” degan qiziq mezon bor. O‘zbekistonda yo‘lga qo‘yilayotgan tashkiliy ishlar, 2025-yilda o‘tkazilish rejalashtirilayotgan musobaqalar, 10 ta sport turi bo‘yicha bellashishi kutilayotgan sportchilarni vaqtincha turar joy bilan ta’minlash masalalari, qad rostlayotgan sport inshootlarining mustahkam va xalqaro talabga javob beruvchi sifati, ovqatlanish, transport kabi umumiy shart-sharoitlar yuqorida aytib o‘tilgan mezonga to‘la mos keladi, — deydi Osiyo paralimpiya qo‘mitasi prezidenti Majid Rashid. — Toshkent shahrida barpo etilayotgan Olimpiya shaharchasida bo‘lib, qurilish ishlarining borishi va bugungi holatini o‘rganish jarayonida o‘zbek xalqining oddiy ishchisida ham sportga qiziqish va muhabbatni ko‘rdim. Bejiz O‘zbekiston parasportchilari yildan yilga yuqori natijalarga erishmayapti. Umrini sport bilan bog‘lashni istagan har bir o‘zbek o‘g‘il-qizi uchun birdek to‘siqsiz muhit yaratilgan.

Davomi 2-betda

Munosabat

ODDIY MUALLIMNING DARDI YUKSAKDIR

yoxud Anbar otin orzusidagi xotin-qizlarning yorqin istiqboli

Oddiy o‘qituvchining kun tartibi, zahmatlari va orzularini yaxshi bilaman. Chunki o‘zim ham oddiygina o‘zbek muallimasining farzandiman. Onam — O‘zbekiston Xalq o‘qituvchisi Maqsudaxon Shodmonovanning o‘qituvchi ekanidan faxrlanib, atrofdagilarning ehtiromiyu e’tirofidan g‘ururlanib voyaga yetganman.

Biroq fidoyi insonlarning sharaflari va zahmatlari mehnatini qadrlamaydigan insonlar ham bor. Bir kuni maktabdan kelsam, hovlimiz to‘la odam. Maktab formasidagi yigitlaru qizlar ostonamizda ko‘zda yosh bilan o‘tiribdi. Xayolimga nimalar kelmadi deysiz...

Davomi 5-betda



2024-yil 8-oktabr, 203-son

Biz va dunyo

O‘ZBEKISTON — MDH: UMUMIY TARAQQIYOT VA XAVFSIZLIK MAKONI

Boshlanishi 1-betda

2017-yildan boshlab O‘zbekiston Hamdo’stlik doirasidagi faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. Xususan, so’nggi yetti yilda avval imzolangan 24 ta ko’p tomonlama hujjat, MDH oliy organlarining 22 ta qarori va 20 dan ortiq sohaviy hamkorlik organlariga qo’shildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2023-yillarda Davlat rahbarlari kengashi majlislarida ishtirok etishi natijasida MDH doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 90 ta turli taklif ilgari surildi hamda ularning o’z vaqtida va to’liq miqyosda amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida “yo’l xaritalari” qabul qilindi.

E’tiborlisi, Hamdo’stlikka a’zo davlatlar ko’magi bilan bugunga qadar 80 dan ortiq tashabbus amalga oshirildi.

MDH davlatlari bilan oliy va yuqori darajadagi tashriflar almashinuvi faollashdi. Bu mamlakatlar Hamdo’stlikning ulkan salohiyatini ochish, ko’p tomonlama muloqot va hamkorlikni, Yevroosiyo makonida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga intilishidan dalolat beradi.

Global qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekiston MDH doirasida barcha sohada hamkorlikning ijobiy dinamikasini ta’minlab kelmoqda. Iqtisodiyotlarning tarkibiy muvofiqligi ishlab chiqarish kooperativi va savdo-iqtisodiy aloqalarni, mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika, to’qimachilik va boshqa sohalardagi hamkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qilayotir. Birgina so’nggi oylarda MDH mamlakatlaridan bo’lgan sheriklar bilan 800 dan ortiq yangi korxona ishga tushirildi.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 20,6 milliard dollarga yetdi. Shundan eksport 8,1 milliard AQSH dollarini, import esa 12,4 milliard dollarni tashkil etdi. Joriy yilning

yetti oyida Hamdo’stlikka a’zo mamlakatlar bilan o’zaro tovar ayirboshlash hajmi o’tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizdan ortiq o’sib, 15 milliard dollardan oshdi.

MDH davlatlari va xalqlarini umumiy madaniy-tarixiy meros va ko’plab gumanitar rishtalar bog’lab turibdi. Bu omillar bugun Hamdo’stlikning mustahkam va ishonchli tayanchi bo’lib qolmoqda. Madaniy aloqalar jadal rivojlanyapti. Festival, konsertlar, turli yarmarkalar, sport musobaqalari va boshqa tadbirlar muntazam o’tkazib kelinayapti.

O‘zbekistonning mazkur birlashma a’zosi sifatidagi faol pozitsiyasi har tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan boyitish va mustahkamlashga xizmat qilmoqda, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari

Joriy yilda O‘zbekistonning asosiy tashabbuslarini amalga oshirish doirasida MDH Iqtisodiy kengashining 101-yig’ilishida 2011-yildagi Erkin savdo bitimiga a’zo davlatlar o’rtasida Erkin savdo to’g’risidagi bitimga kirish bo’yicha muzokaralarni boshlash imkoniyati to’g’risida bayonnoma qarori, Davlat xaridlari bozori hamda MDHga a’zo davlatlar hududidan o’tuvchi xalqaro transport yo’laklarini rivojlantirish va infratuzilmani optimallashtirish bo’yicha 2030-yilgacha bo’lgan davrga mo’ljallangan Harakatlar rejasi qabul qilindi.

26-sentabr kuni Toshkentda MDHga a’zo davlatlar tahlil markazlarining “Uzoq muddatli hamkorlikning yangi kun tartibi” mavzusidagi xalqaro konferensiyasi bo’lib



O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 20,6 milliard dollarga yetdi. Shundan eksport 8,1 milliard AQSH dollarini, import esa 12,4 milliard dollarni tashkil etdi. Joriy yilning yetti oyida Hamdo’stlikka a’zo mamlakatlar bilan o’zaro tovar ayirboshlash hajmi o’tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizdan ortiq o’sib, 15 milliard dollardan oshdi.

surilgan tashabbuslar esa format doirasida keng qo’llab-quvvatlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligi va bu boradagi xalqaro tashabbuslar natijalari e’tirof etilib, 2024-yilda Toshkent shahri Hamdo’stlikning Yoshlar poytaxti deb e’lon qilindi.

MDH Davlatlari rahbarlarining 2023-yil 13-oktabr kuni Bishkek shahrida bo’lib o’tgan yig’ilishida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni bilan taqdirlangani davlatimizning Hamdo’stlik doirasidagi ko’p tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirishga qo’shayotgan hissasining yana bir yuksak e’tirofi bo’ldi.

o’tdi. Anjumanda ta’kidlanganidek, MDH davlatlari O‘zbekiston uchun muhim hamkorlar, qo’shnilar va do’stlardir, ular bilan mamlakatni taraqqiyot va xavfsizlikning umumiy makoni birlashtiradi. O‘zbekiston tomoni esa Hamdo’stlik samarali rivojlanishi uchun umumiy mas’uliyatni to’liq anglaydi. Bu esa butun Yevroosiyaning kelajagiga taalluqli.

MDHning Moskvada bo’lib o’tadigan navbatdagi sammiti va uning yakunlari mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz farovonligi yo’lida Mustaqil davlatlar hamdo’stligi makonida ko’p tomonlama munosabatlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Taraddud

OLIMPIYA SHAHARCHASI O‘ZBEK SPORTNING OLAMSHUMUL YUTUQLARI RAMZIGA AYLANADI



Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, Osiyo paralimpiya qo’mitasi prezidenti Olimpiya shaharchasi xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o’zbek sportining olamshumul yutuqlari ramziga aylanishiga ishonishini, bu maskan kelajakda me’moriy jihatdan mukammal, energiyatejamkor va eng ilg’or innovation yechimlarni o’zida mujassam qilgan muhtasham majmua bo’lishiga ishonchi komil ekanini qo’shib o’tadi.

— Prezidentimiz kelgusida yurtimizda parasport turlari bilan birga nogironligni

bo’lgan shaxslar shug’ullanishi mumkin bo’lgan sport turlarini ham keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berilishi, asosiy e’tibor nogironligi bo’lgan shaxslarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga qaratilishi zarurligini ta’kidlagan edi, — deydi O‘zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi bosh kotibi Oybek Qosimov. — Bu yilgi musobaqada paraatletlarimiz yugurish, yadro va nayza uloqtirish, uzunlik va balandlikka sakrash bo’yicha musobaqalarda juda faol ishtirok etdi. Davlatimiz rahbarining bunday sport turlaridagi ishtirokni yanada kengaytirish lozimligi xususidagi topshiriqlari yaqin

kunlarda o’z natijasini berishiga shubham yo’q.

Anjumanda ishtirok etgan jurnalistlar musobaqaga ko’rilayotgan tayyorgarlik, o’yinlar dasturiga kiritiladigan sport turlari va ular o’tkaziladigan obyektlar haqida ma’lumotga ega bo’ldi. Shuningdek, delegatsiyalarning taxminiy soni, transport-logistika masalasi, antidoping, viza, aviataqtnovlar kabi tashkiliy masalalar xususidagi savollarga javob berildi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Aks-sado

YETTI MUHIM TASHABBUS o’quv-tarbiya jarayonidagi yangilanishlarga zamin bo’ladi



Abdulmalik AKRAMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, pedagogika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ko’p yillar o’qituvchiga e’tibor borasida so’zimiz boshqa, amalmiz boshqa bo’lib keldi. Oqibatda soha xodimlari himoyasiz qatlama aylanib qoldi. Maktab o’qituvchilarini asosiy vazifasi bir chetda qolib, o’ziga mutlaqo aloqasi bo’lmagan ishlarga jalb etish chuqur ildiz otdi. Aniqlik, muallimlarning “xo’jayini” ko’payib ketdi. Bu esa nafaqat ta’lim sifatiga, balki soha xodimlarining kasbiga bo’lgan munosabatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Endi u kunlar ortda qoldi. Yurtimizda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. O’qituvchilik kasbining nufuzi va obro’sini yuksaltirish yo’lida misli ko’rilmagan qadamlar tashlandi. Bu borada o’nlab muhim huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Maktab o’qituvchilarining oyligi ham muhtasham bo’lib qoldi. O’qituvchi tayyorlashi shart bo’lgan hujjatlar soni keskin kamaytirildi.



Sohaning huquqiy asoslari ham takomillashib borayotir. Xususan, “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilinishi soha taraqqiyotida yangi uqlarni ochib berdi. Zero, qonunga muvofiq, o’qituvchilarga mualliflik dasturi va o’qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o’qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

“Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to’sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun esa mamlakatimizda o’qituvchilarga qaratilayotgan e’tiborning yana bir isboti bo’ldi. Mazkur qonun bilan pedagog xodimni mehnatga biror shaklda ma’muriy tarzda majburlash uchun ma’muriy vajinoyi javobgarlik kuchaytirildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat o’qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini, ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o’sishi to’g’risida g’amxo’rlik qilishi belgilab qo’yildi.

Bular hali hammasi emas. Ta’lim sifatini yuksaltirish maqsadida pedagoglarning malakasini oshirish

bo’yicha yagona va vertikal tizim ham yaratildi. Joriy yilda hozirga qadar 142 o’qituvchi ilg’or xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi. Maktab direktori lavozimiga tayinlash tizimi takomillashirilib, ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi o’rnatildi.

Ta’lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e’tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san’at, sport sohalarida yuksak marralarni qo’lga kiritayotgani e’tiborga molik. Buni o’quvchilarimiz xalqaro fan olimpiadalarida so’nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o’zida esa 122 ta medalga sazovor bo’lgani misolida ham ko’rish mumkin.

Ushbu jarayonda xalqaro fan olimpiadalarida g’oliblikni qo’lga kiritgan o’quvchilarning ustozlarini rag’batlantirish tizimi yo’lga qo’yilib, shu maqsadda



davlat byudjetidan 6 milliard so’m mablag’ yo’naltirilgani muhim rag’batlantiruvchi omil bo’lib xizmat qilayotir.

Prezidentimizning Abdulla Avloniy nomidagi Milliy pedagogik mahorat institutida ta’lim sohasi vakillari bilan muloqoti o’z taqdirini yosh avlodni tarbiyalashdek sharafli faoliyatga bag’ishlagan o’qituvchilar hayotida o’chmas iz qoldirdi.

Bugun o’qituvchilarning jamiyatdagi nufuzi, pedagogik kasbining obro’si oshib bormoqda. Ular faoliyatini qo’llab-quvvatlash, yutuqlarini e’tirof etish, moddiy va ma’naviy rag’batlantirish masalalariga shaxsan davlatimiz rahbari e’tibor qaratmoqda.

Mamlakat taraqqiyoti, hech shubhasiz, ta’limga bog’liq. Shu bois, keyingi yillarda ta’limga e’tibor keskin kuchaytirildi. So’nggi 7 yilda ta’limni rivojlantirishga jami 216 trillion so’m mablag’ yo’naltirildi. Ushbu mablag’ va yaratilayotgan imkoniyatlar bugun o’z natijasini ko’rsata boshladi. Umumiy o’rta ta’lim tizimida jiddiy o’zgarishlar amalga oshirilishi, yangi avlod darsliklari ishlab chiqilishi, 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi faoliyati yo’lga qo’yilishi hamda davlat maktablarining 6 mingdan ziyodi

rekonstruksiya qilinishi, yana ko’plab yangi maktablar barpo etilishi barobarida xususiy maktablar faoliyati ta’lim tizimida raqobat muhiti shakllanishiga keng yo’l ochib bermoqda.

Yaqin yillargacha oliy ta’lim tizimi, ta’bir joiz bo’lsa, eng “defitsit” ta’lim turi bo’lib qolgan edi. Hozir yurtimizda 211 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. 2016-yilga qadar bitiruvchilarning 9-10 foizigina OTMda o’qish imkoniga ega bo’lgan bo’lsa, bugun bu ko’rsatkichni 38 foizdan oshirish choralari ko’rilib, oliy ma’lumot olishda ta’limning kechki, sirtqi va masofaviy shakllari yo’lga qo’yildi.

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari faoliyatida shaffoflik, adolat ta’minlanishi, 135 ta oliy ta’lim tashkiloti tashkil etilishi yoshlarning ko’zida kelajakka katta umid uchqunlari porlashiga sabab bo’lmoqda, desak yangilishmaymiz.

Shu bilan birga, ta’lim tashkilotlari sonining kararlarga oshib borishi malakali pedagoglarga ehtiyojni ham yuzaga keltirib, ta’limni sifatli tashkil etish vazifasini qo’ymoqda. Shu maqsadda o’z faoliyatida ulkan yutuqlarni qo’lga kiritayotgan muallimlarni rag’batlantirish tizimi takomillashirildi. O’qituvchining mahorati va faoliyatida erishayotgan natijalariga qarab to’lanadigan ustamalar soni 3 tadan 17 taga oshirildi.

Muloqot jarayonida davlatimiz rahbari o’z faoliyatida yaxshi natija ko’rsatayotgan pedagoglarni rag’batlantirish bo’yicha galdagi rejalari bilan o’rtqolashib, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga doir 7 ta muhim yo’nalish bo’yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Pedagoglarning kasb mahoratini oshirish, mehnatini qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirishni davom ettirish, yangi maktab va bog’chalar barpo etish, ta’lim tizimida sifat va raqobatni ta’minlash maqsadida raqamlashtirish darajasini oshirish, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasini ommalashtirish, iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish hamda tarbiya va oqib-axloq bilan bog’liq dolzarb masalalar shular jumlasidan.

Yangi O‘zbekistonda o’qituvchilar maqomini ko’tarish, qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan ishlar butunlay yangi bosqichga chiqdi. Natijada ustozlarda o’z ustida ishlashga ishtiyoq ortdi, bilimni oshirishga intilish kuchaydi. Soha rivojiga ana shunday e’tibor maktablarda o’quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan o’zgartirishga, o’qituvchilar tarkibini yaxshilashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.



XALQ FAROVONLIGI UCHUN SIFATLI TA'LIM, MALAKALI TIBBIYOT VA KUCHLI IJTIMOY HIMOYANI TA'MINLAYMIZ

TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI — O‘ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI SAYLOVOLDI DASTURIDA AYNI YO‘NALISHLARDA HAM JUDA MUHIM TASHABBUS VA TAKLIFLAR ILGARI SURILGAN

Sifatli ta'lim, malakali tibbiyot va kuchli ijtimoiy himoya har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi va xalq farovonligini ta'minlashda asosiy omillar hisoblanadi. Bu sohalarining rivoji nafaqat mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi, balki fuqarolarning sog'lom turmush tarzi, intellektual salohiyati va ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Shu bois, davlatimiz tomonidan bu sohalarini yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos darajada rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olingan.

Keyingi yetti yilda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni **Uchinchi Renessans** poydevorini yaratish strategik vazifa sifatida belgilanib, keng ko'lamli tarixiy islohotlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Shiddatli tus olgan barcha islohotlarning markazida inson va uning qadri turibdi. Zotan, inson munosib sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi.

Siyosiy platformasi **“O‘zbekiston — 2030”** strategiyasiga hamohang bo'lgan O'zLiDeP Saylovoldi dasturida bayon qilingan jami 500 vazifaning 167 tasi, uchdan bir qismi aynan ijtimoiy masalalarga oid ekani ham bejiz emas.

Yangilangan Konstitutsiyamizda O'zbekiston **“ijtimoiy davlat”** deb e'lon qilinishi va bu boradagi majburiyatlarning **uch barobarga ko'payishi** har bir siyosiy kuch uchun o'ziga xos yo'l xaritasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy davlat tamoyillarini qo'llash, ta'limning barcha bosqichlarida qamrov va sifat darajasini oshirish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish yo'nalishlarida ko'plab ishlar amalga oshirilganini alohida ta'kidlash o'rinnidir.

Keyingi 7 yil davomida ta'lim sohasini rivojlantirish uchun umumiy hisobda **216 trillion** so'm samoyya yo'naltirildi. Xususiy ta'lim uchun yaratilgan imkoniyatlar tufayli xususiy maktablar soni 27 tadan **500 tagacha** ko'paydi, nodavlat bolalar bog'chalari esa 250 tadan **30 mingtaga** yetdi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida tubdan rivojlanib, bog'chalar soni 8 barobar oshdi, qamrov darajasi esa 27 foizdan **76,4 foizgacha** o'sdi.

Oliy ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddat ichida **135 ta yangi oliyog'oh** tashkil etilib, ularning umumiy soni **211 taga** yetdi. Oliy ta'limga qamrov esa 9 foizdan **38 foizgacha** ko'tarilishi tizimda amalga oshirilgan islohotlarning yana bir yorqin misolidir.

Albatta, bu kabi moddiy resurslar, birinchi navbatda, intellektual-ma'naviy resurslar bilan to'ldirilgandagina ta'limga sifat, samara bo'lishi shubhasiz. Intellektual-ma'naviy resurslar bu, avvalo, o'qituvchining bilim va tajribasi, mahorati, uning madaniy darajasi, ma'naviy saviyasi deganidir.

Shuning uchun ham O'zLiDeP hali sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud deb hisoblaydi va o'zining Saylovoldi dasturi doirasida elektorat e'tiboriga qator g'oya hamda istiqbolli loyihalarni taqdim etmoqda.

Urg'u beradigan jihati shundaki, mazkur takliflarning barchasining zamirida ta'lim sifatini sezilarli ravishda oshirishga erishish masalasi turibdi.

Jamiyatni ma'rifiy yuksaltirishga intilish — ustuvor maqsad

Ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: **“Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgatib”**, degan purma'no da'vati partiyaning ta'lim yo'nalishidagi islohotlarida mayoq bo'lishi tabiiy. Chunki dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib borayotgan davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya jarayonining tub mohiyatini tashkil etadi.

O'zLiDeP bu islohotlarni qat'iy qo'llab-quvvatlagan holda maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirishni kafolatlaydi. Bunda davlat-xususiy sheriklik va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari **birinchi navbatda** qo'llab-quvvatlanadi. Biz ta'lim va intellektual rivojlanish bo'yicha **Yangi O'zbekiston** dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishi zarur deb hisoblaymiz.

Ota-onalar fikri inobatga olinib, barcha bog'chalar **kompyuter sinfi** bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratamiz.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rta **ish haqini 2 barobar**

oshirish choralarini ko'ramiz. Bu sa'y-harakatlar bilan biz ta'lim sifatini oshirishga, o'qituvchilarning ishga, o'z kasbiga bo'lgan muhabbatini yuksaltirishga hissa qo'shamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim sifati o'qituvchiga yaratilgan qulay imkoniyat bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida **153 mingdan ortiq sinf rahbarlari** uchun to'lanadigan **mablag' miqdorini ko'paytirishni, ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni** taklif qilamiz.

Kelgusi yillarda Maktablarni rivojlantirish davlat dasturini joriy etish O'zLiDePning diqqat markazida bo'ladi. Modomiki, najot ilmda, ma'rifatda ekan, biz 2030-yilga qadar qo'shimcha **2,5 million o'quvchi** o'mini yaratish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilashni vazifalarimizdan biri sifatida ko'ramiz. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni yildan yilga o'sib, bunga hamohang tarzda maktab yoshidagi bolalarning soni ham ko'paymoqda.

Bugun davlat ta'limiga hamohang tarzda nodavlat ta'lim muassasasi ham hayotimizga kirib keldi. Bu raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat esa rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Partiyamiz bu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlagan holda nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **2 barobarga** oshirilib, ular faoliyatini yo'lga qo'yish uchun **1 trillion so'm** miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishi taklifini ilgari suradi. Partiyamiz davlat tashkilotlaridan mustaqil bo'lgan va ta'lim tashkilotlarini xolisona baholaydigan **nodavlat “ta'lim auditi”** tizimi joriy etilishini ta'limni izchil taraqqiy ettirishda muhim vosita deb hisoblaydi.

Maktab bitiruvchilari masalasi bizning doimiy diqqat markazimizda bo'ladi va ularni kasbga yo'naltirishda faol ish olib boramiz. Shu jihatdan 2030-yilgacha bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini **50 foizga** yetkazilishi uchun barcha choralarni safarbar qilamiz. Bu esa ularning nafaqat mamlakatimizda, balki xorijdagi nufuzli universitetlarda o'qishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Albatta, biz yoshlarimiz **“Top-100”** global ro'yxatga kirgan universitetlarda ta'lim olishi uchun **valyutada uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar berish** amaliyotini joriy etish tarafdorimiz.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq oliy ta'lim muassasalari ko'paydi. Pirovardida talabalar yotoqxonasiga ehtiyoj ortdi.

Partiyamiz kelgusi yillarda oliyog'ohlar uchun qo'shimcha **120 ming o'rinni o'quv binolari** va **150 ming o'rinni talabalar turar joylari**ni qurish borasidagi vazifalar jirosi nazoratga olinishini ta'minlaydi.

Biz ilm-fanga yo'naltirilgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030-yilgacha **10 barobarga** oshiramiz.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni **70 foizga** yetkazishga erishamiz. 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida **60 foizga** yetkazish, ilmiy xodimlarning ish haqini o'rta **2 barobarga** oshirish borasidagi tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlaymiz.

Maqsadimiz Yangi O'zbekistonda yuksal madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, **erkin, baxtli insonlar yashaydigan** mamlakatga aylantirishga qaratilgan va uni amalga oshirish uchun butun kuch hamda imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Shu munosabat bilan, **“Yangi O'zbekiston — ma'rifati jamiyat”** konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqamiz. **Madaniyat va sport** muassasalari, **kutubxonalar, teatr va muzeylarning** moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash yuzasidan kompleks tadbirlar amalga oshiriladi.

Sog'lom tanda sog' aql yoxud malakali tibbiyotni ta'minlash kafolati

Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ham o'z faoliyatida ana shu haqiqatga tayyandir. Bu borada mamlakatimizda

Biz birgalikda katta kuchmiz! Qudratimiz ham shu birligimizda!

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun birlashgan vatandoshlarimizni

“Va'da emas natija, ertaga emas bugun” uchun, partiyamiz uchun ovoz berishga chaqiramiz!



O'ZLiDEP



amalga oshirilayotgan ishlarni e'tirof etadi. Zamonaviy tibbiy xizmat qamrovi markazdan to chekka qishloqlargacha yetib borayotgani islohotlar muvaffaqiyatidan darakdir.

Aholi o'rta-sida kasalliklarni keskin kamaytirish, sog'lom turmush tarzini faol joriy etish, o'rta **umr davomiyligini 78 yoshga** yetkazish kabi eng muhim vazifalar bo'yicha barcha imkoniyatlarni to'liq ishga solishimiz kerak.

Shuning uchun ham O'zLiDeP kelgusi besh yilda byudjetdan tibbiyotga ajratiladigan yillik mablag' hajmini kamida **2 karra** oshirish, ya'ni **6 milliard dollarga** yetkazishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan. Bunda asosiy e'tibor kasalliklar profilaktikasiga qaratiladi.

Onalar va bolalar o'limi, bolalar o'rta-sidagi irsiy kasalliklarni kamida **2 barobarga** qisqartirish, onkologik, yurak-qon tomir, qandli diabet bo'yicha erta o'limni esa **2,5 barobarga** kamaytirishga bor kuchimizni safarbar etamiz.

Biz xotin-qizlar o'rta-sida onkologik kasalliklarni kamaytirish maqsadida **40 yoshdan oshgan ayollar** uchun tegishli davriylikda **tibbiy ko'rikdan** o'tish joriy qilinishiga erishamiz. Kasallik muddatining o'rta ketishiga va avj olishiga yo'l qo'yimaski **qabul kafolatlangan bepul tibbiy yordam, uning aniq hajmining** huquqiy asoslarini ishlab chiqishda partiya faol ish olib boradi.

Xorij tibbiyotida o'zining ijobiy samalarini berayotgan tibbiy sug'urta tizimiga o'tishni bugun davrning o'zi taqozo etib turibdi. Biz **“Tibbiy sug'urta to'g'risida”** gi qonun loyhasini ishlab

tashkiloti”dan notijorat tashkilotiga o'tkazilishi kerak emish.

Bunga aslo qo'shilib bo'lmaydi. Chunki xususiy tibbiyot sog'liqni saqlash sohasida sifat va raqobatni rivojlantirishni ta'minlaydi. Xususiy tibbiyot davlat tibbiy xizmatiga muqobil xizmat turi bo'lib, u davlat tibbiyot muassasalariga yukni kamaytiradi va byudjet xarajatlarning iqtisod qilinishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda xususiy tibbiyot muassasalari soni 8,5 mingdan oshib, jami tibbiy xizmatlarda **22 foiz** ulushni tashkil etadi. Tibbiyot sohasiga xususiy sektorning kirib kelishi O'zbekistonda **tibbiy turizmning** rivojlanishiga asos soldi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida jami **67,4 ming** nafar chek el fuqarosi davolanish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan.

Demak, xususiy tibbiyotni notijorat shakliga o'tkazish davlat tibbiyot muassasalariga yuklamaning ortishiga, sifatning yo'qolishiga olib keladi. Natijada xalqimiz zarar ko'radi.

“Har bir oila o'z uyiga ega bo'lsin!”

Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ijtimoiy davlat qurish va uning asoslarini yaratish yo'lida katta islohotlar davom etmoqda. Ijtimoiy davlat asoslari esa har bir xonadonning o'z uyiga ega bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Bugun uy-joy qurilishi

Shuningdek, yangi uy-joy sotib olgan fuqarolarga qo'shilgan qiymat solig'ining yarmini qaytarib berish tizimini joriy etamiz. Bu oilalarning uy-joy masalasini hal qilishda muhim qadam bo'ladi.

Inson qadri, ijtimoiy himoyasi — ustuvor maqsad

Yangi tahrirda qabul qilingan Asosiy qonunimizda mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari **davlat himoyasida** bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zLiDeP **“Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat”** tamoyili asosida ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va kambag'allikni qisqartirish aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari **davlat himoyasida** bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Mehnatga yaroqli aholiga yanada qulay ijtimoiy muhit yaratishda partiya faol ish olib bormoqda. Shu jihatdan biz maosh oluvchi fuqarolarni mehnatga **haq to'lashning** eng kam miqdorining **3 barobarigacha daromad solig'idan ozod etilishiga** erishamiz. Sa'y-harakatlarimiz aholining oliyaviy daromad oshishiga va pirovardida hayot darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Biz har bir odam hayoti qadrli ekanini e'tirof etib, **nogironlikni belgilash** jarayonlarini soddalashtirish, sarsongarchilikka yo'l qo'yilmaski, Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyalari bemor to'g'risidagi ma'lumotlarni **elektron tizimdan olish** va **elektron rasmiylashtirish** kerak deb hisoblaymiz. Ma'lumotlarni elektron tizimda olish va elektron rasmiylashtirish inson omili ishtirokini kamaytirishga xizmat qiladi.

Partiyamiz nogironlikni belgilashda **ijtimoiy modelga o'tish** yo'nalishida tizimli ish olib boradi. **Ishlash istagidagi** nogironligi bo'lgan shaxslarga **zarur sharoitlar** yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Kelajagimiz egalariga e'tibor manzilni yaqinlashtiradi

Partiyamiz yoshlar uchun manfaatli ish o'rinarini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini moliylashtirish yo'nalishlarida tizimli ishlar olib boradi. Yoshlarni hunar va zamonaviy kasblarga, xorijiy tillarga o'qitish, ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish, kitobxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, IT sohasi va sportga keng jalb etish kabi aniq rejalarni amalga oshiramiz. Shuningdek, **yoshlar bandligi** va **ishbilarmonligini** faol qo'llab-quvvatlashni ustuvor vazifamiz sifatida belgilaganimiz.

Yoshlar uchun zamonaviy kasblarga o'qitish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqamiz hamda korxonalar buyurtmasi asosida **kasbga tayyorlash** amaliyotini joriy qilamiz. Bu orqali yoshlarni **ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlash** samaradorligini oshirishni ko'zlayamiz. Shuningdek, partiyamizning tashabbusi bilan har bir viloyatda kamida 100 gektar maydonda **“Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi”** tashkil qilinadi va bu markazlar yoshlar uchun chinakam **“loyihsalar fabrikasi”** bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlikka qadam qo'ygan yoshlarimiz uchun **mikromoliyalash xizmatlarini** kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratamiz. Shuningdek, o'z biznesini ijara olingan binoda boshlayotgan yoshlar uchun **ijara xarajatlarning 50 foizini bir yil davomida qoplab berish** mexanizmini joriy qilamiz.

Yoshlar orasida IT sohasini ommalashtirish va IT xizmatlarni eksportini kengaytirish uchun **“maktab — oliyog'oh — IT kompaniyasi”**dan iborat yaxlit **“IT ta'lim”** zanjirini yaratishni ko'zlayamiz.

Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, **yoshlar uchun maxsus uy-joylar qurish** va imtiyozli ipoteka kreditlarini ajratishni ustuvor vazifamiz sifatida belgilaganimiz. Shu maqsadda har yili kamida **mingta yosh oilaga imtiyozli ipoteka** kreditlarini ajratishni ta'minlaymiz va bu orqali yoshlarimizning o'z uylariga ega bo'lish imkoniyatiga erishamiz.

Xotin-qizlar va yoshi ulug' insonlarga barcha sharoitlar yaratiladi

O'zLiDeP jamiyatda **ayollar tadbirkorligini faollashtirishga** qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Aylomlangan **masofaviy mehnat** va **raqamli tadbirkorlik** bo'yicha ko'nikmalarini oshirishga jiddiy e'tibor qaratish orqali ular orasidagi **ishsizlik darajasini 2 marta kamaytirish** qat'iy maqsadimizdir.

Boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini **ko'paytirish** tarafdorimiz. Qiyin ahvolda tushib qolgan xotin-qizlar uchun **huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish** xizmatini kengaytirishning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlaymiz.

Tug'urug' ta'limidagi ayollar uchun **onlayn ishlash tizimini** joriy etish yuzasidan huquqiy asoslar yaratilishi bo'yicha izchil ish olib boramiz. Tadbirkorlik subyektlarining yopillishi natijasida **ishsiz qolgan yosh bolal** ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun ularni **ishsizlikdan sug'urtalash** tizimini joriy qilamiz.

So'nggi yillarda mamlakatimizda keksa avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni sog'lomlashtirish ishlari samarali tashkil etish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ishlarni davom ettirish maqsadida O'zLiDeP **keksalar sog'lig'ini tiklash** va **mazmunli dam olishi** uchun alohida dastur qabul qilish taklifini ilgari surmoqda.

Partiya mamlakatimizdagi uch milliondan ortiq nuroniyalar **har yili bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi**, shifoxona va sihatgohlarda davolanishi, ular uchun yurtimiz bo'ylab **sayohatlar tashkil etilishiga** ko'maklashadi.

“Keksalar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida” gi qonunni qabul qilish orqali **70 yoshdan oshgan keksalarga bepul tibbiy va zarur ijtimoiy xizmatni** kuchaytirishni ilgari suramiz. Pensiya tizimini takomillashtirish orqali jam'arib boriladigan pensiya to'lovlarining bir qismini fuqarolarga ehtiyojlari uchun ular **pensiya yoshiga yetmasidan to'lab berish** amaliyotini joriy qilamiz.

Biz **birgalikda katta kuchmiz!** Qudratimiz ham shu birligimizda! Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun birlashgan vatandoshlarimizni **“Va'da emas natija, ertaga emas bugun”** uchun, partiyamiz uchun ovoz berishga chaqiramiz!

Erkin ZAXIDOV,
Sevara UBAYDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar



TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI — O‘ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMYANGI O‘ZBEKISTON:
YANGI PARLAMENT
SAYLOVLARI SARI

Akmal SAIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Spikerining birinchi o‘rinbosari,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

Bunda 75 nafar deputat ko‘pchilik ovoz bilan bevosita saylanadi va saylovchilar ayni jarayonda aniq nomzodlar uchun ovoz beradi. Deputatlarning yana 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha, demakki, siyosiy partiyalar uchun ovoz berish orqali saylanadi. Shu tariqa mavjud beshta siyosiy partiya parlamentga saylanishi uchun kamida 7 foiz ovoz olishi kerak bo‘ladi.

Ikkinchi xususiyati: barcha darajadagi saylov komissiyalarining faoliyati, ularning saylov jarayonlari ishtirokchilari bilan o‘zaro hamkorligi to‘liq raqamlashtirildi. Saylov kampaniyasi davomida “Elektron saylov” axborot tizimi orqali saylov komissiyalari bilan siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi qariyb 60 turdagi o‘zaro hamkorlik aloqasi to‘liq elektron shaklda amalga oshiriladi. Axborot tizimi interaktiv xaritalar orqali saylovchilar va saylov uchastkalari to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar, barcha turdagi saylovlarda deputatlikka nomzodlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish, deputatlikka nomzodlar va ularning biografik ma‘lumotlari bilan

uchun saylovchilar nisbiy ko‘pchiligining ovozini olish kifoya qiladi. Shunga ko‘ra, nomzod tegishli saylov okrugi bo‘yicha boshqa nomzodlarga qaraganda ko‘p ovoz olgan taqdirda saylangan hisoblanadi va natijada takroriy ovoz berishga hojat qolmaydi. Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, shu jumladan, “oilaviy” ovoz berganlik holatlari uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirildi.

To‘rtinchi xususiyati: bu galgi saylov parlamentarizm va mahalliy vakillik organlarining vakolatlari bilan tahrirdagi Konstitutsiya normalari bilan sezilarli darajada mustahkamlangan sharoitda o‘tkazilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari 12 tadan 18 taga oshirildi. Parlamentning ijro etuvchi, odil sudlovni amalga oshiruvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat qilish vakolatlari kengaytirildi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga hokimlarning rahbarlik qilishi instituti tugatilmog‘da. Jamiyat hayotining muhim masalalarini hal etishda vakillik organlari rolini oshirish maqsadida ilgari hokimlar tasarrufida bo‘lgan 33 ta vakolat mahalliy kengashlarga o‘tkazildi.

Beshinchi xususiyati: saylovda ishtirok etadigan ayol nomzodlar soni izchil ko‘paymoqda. Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, endi xotin-qizlar siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil qilishi shart. Avval bu talab bo‘yicha ko‘rsatkich 30 foiz edi.

Joriy yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tadigan saylovda Qonunchilik palatasining 150 deputati, Senatning 56 a‘zosi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengining 65 deputati, shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahri va 208 ta tuman (shahar) kengashlari deputatlari

ishonchli vakili faol ishtirok etadi. Shuningdek, saylov komissiyalarining 120 mingdan ortiq a‘zosi tashkilotchi sifatida hamda mahalliy, xorijiy va xalqaro darajalardagi 70 mingdan ortiq vakil kuzatuvchi maqomida qatnashadi.

Bu haqda so‘z borganda, saylovni kuzatishda mingdan ortiq xalqaro va xorijiy kuzatuvchi ishtirok etishini ta’kidlash lozim. Xususan, 50 ta davlatdan 400 ga yaqin, MDH, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi 21 ta xalqaro tashkilotdan qariyb 500 nafar hamda 26 ta xorijiy davlatning saylov komissiyalaridan 60 nafar atrofida kuzatuvchi ayni jarayonda hozir bo‘lishi kutilmoqda.

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan saylovni monitoring qilishda asosiy guruhdan iborat to‘liq miqyosdagi, uzoq muddatli va qisqa muddatli missiyasi bilan ishtirok etish



yicha qamrovdor sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘ldagi barcha intilishlarimiz BMTning har bir inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan **“Hech kimni unutmashlik va ortda qoldirmaslik”** asosiy tamoyiliga muvofiq ekani bilan diqqatga loyiq.

Keyingi yillarda mamlakatimiz gender tenglik, so‘z va e‘tiqod erkinligini ta’minlash, qiynoqlarga qarshi kurashish sohalarida aniq hamda qat’iy qadamlar tashlamog‘da. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan har qanday tazyiq va zo‘ravonliklarga barham berishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Konstitutsiyaviy darajada “Miranda qoidalarini”, “Xabeas korpus”, “Pro Bone” kabi demokratik adolat institutlari mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan tergov sudyasi lavozimi joriy etiladi.

O‘zbekiston 2021-yilda Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qildi va uning qoidalarini nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga doir yangi qonunda o‘z aksini topdi. Yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha hal qiluvchi ahamiyatga ega chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy himoya agentligi tashkil etildi. Natijada nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun, jumladan, uy-joy sektorida ham qulay muhit yaratish bo‘yicha ko‘plab muammolar ijobiy yechimini topmoqda.

Mamlakatimiz BMT tuzilmalari, boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan inson manfaatlarini ilgari surish va himoya qilish masalalarida faol hamkorlik qilib kelmog‘da. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida 11 ta rezolyutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi, 2024-yilning o‘zida 4 ta shunday rezolyutsiya tasdiqlandi.

BMT Bosh kotibi **Antoniu Guterrish** inson huquqlarining holati va joriy islohotlar bilan tanishish maqsadida O‘zbekistonga so‘nggi davrda ikki marta — 2017 va 2024-yillarda tashrif buyurdi. Shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissarlari **Zayd Raad al-Husayn** 2017 va **Folker Turuk Eymon Gilmor** 2023-yilda, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori **Matteo Mekachchi** 2023-yilda, Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi **Martin Chungong** 2022-2023-yillarda rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lgan.

O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi marta 2021-2023-yillarda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a‘zo bo‘ldi. Bu yil O‘zbekiston ilk bor bir yo‘la uchta nufuzli xalqaro organ — EKOSOS, BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi va XMT Ma‘muriy byurosi a‘zolariga saylandi.

“Joriy yilda butun dunyo bo‘ylab, ta’bir joiz bo‘lsa, yirik saylov marafoni bo‘lib o‘tmoqda. Yil davomida dunyo aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiluvchi 70 ga yaqin davlatda Prezident va parlament saylovlari o‘tkaziladi. Yevroparlamentga saylov va Fransiyaning muddatidan oldin parlament saylovi shular jumlasidandir.”

niyatini bildirgan. Ya’ni ushbu nufuzli xalqaro tashkilotdan salkam 350 nafar kuzatuvchi saylovni kuzatib boradi.

O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari va boshqa diplomatik vakolatxonalari huzurida — 39 ta davlatda 56 ta saylov uchastkasi tashkil etilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON:
DEMOKRATIK ISLOHOTLAR
VA INSON HUQUQLARI

Konstitutsiyaviy o‘zgarishlarning asosiy qismi har bir insonning huquq va manfaatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri daxldordir. Muhimi, ushbu yangilanishlar Konstitutsiya normalarini amalga oshirish kafolatlarini sezilarli darajada mustahkamladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida ko‘plab qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda, yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Ayni o‘zgartirishlar davlat hokimiyatini tashkil etish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi tarmog‘i va boshqa davlat organlarini, xususan, Markaziy saylov komissiyasini shakllantirish tamoyillariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani juda muhimdir.

O‘zbekistonda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘-

Bo‘ljak saylov mamlakatimizda demokratik davlatchilik amal qilayotganligining yorqin namunasi bo‘ladi. Ushbu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayon fuqarolarning saylash va saylanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda, davlat organlarini milliy qonunchilik va xalqaro saylov standartlariga to‘la mos ravishda demokratik tarzda shakllantirishda ham yurtlarimizning yanada faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

tanishish imkonini beradi. Shu asnoda saylov jarayonlarida byurokratiyaga yo‘l qo‘yish, ortiqcha vaqt sarflash va keraksiz qog‘ozbozlik holatlari imkon qadar kamayishiga erishiladi.

Uchinchi xususiyati: saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga muvofiq tarzda to‘liq takomillashtirildi. Xususan, doimiy a‘zolar faoliyat yuritadigan Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi saylov organlarining yangi tizimi joriy etildi. Ovozlarini sanash tizimi majoritar tartibdan plyuralistik tizimga o‘zgartirildi. Qonunchilikda belgilanganidek, deputatlikka saylanish

saylanadi. Saylov kodeksiga muvofiq, siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish huquqiga ega. Ayni paytda faol saylov kampaniyasi davom etmoqda. Siyosiy partiyalar saylovlardi tashviqoti jarayonida yolg‘on ma‘lumotlar tarqalishining oldini olish, saylovning asosiy prinsiplariga rioya etilishini ta’minlash, saylovchilarning erkin tanlovini amalga oshirish imkonini beruvchi saylovlardi tashviqotining axloq qoidalarini imzoladi.

Shu tariqa saylovda 30 mingga yaqin nomzod va ularning qariyb 90 ming

Yangi O‘zbekiston 2018-yilda BMTning barcha mandat egalari doimiy taklifnoma taqdim etgan davlatlardan biriga aylandi. Shu vaqt ichida BMTning Din va e‘tiqod erkinligi masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi **A.Shahid**, Sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi **D.Garsiya-Sayan** hamda Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish va himoya qilish masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi **F.Ni Aolayn** yurtimizga rasmiy tashriflar bilan keldi.

Joriy yil avgust oyida BMTning Munosib turar joy masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi **B.Radjagopal** tashrif buyurdi. BMT maxsus ma‘ruzachisi bilan tegishli davlat tashkilotlari va turli muassasalarda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda mamlakatimizda aholini munosib uy-joy bilan ta’minlash, infratuzilmani yaxshilash sohasida amalga oshirilgan ishlar atroflicha muhokama qilindi.

PARLAMENT SAYLOVI —
YANGI O‘ZBEKISTON
DEMOKRATIK
TARAQQIYOTINING
YANGI BOSQICHI

Saylov — demokratiyaning eng muhim mezonlaridan biri. Bu xalqchil jarayon orqali fuqarolar o‘z siyosiy xohish-irodasini namoyon etadi va davlat organlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Joriy yilda butun dunyo bo‘ylab, ta’bir joiz bo‘lsa, yirik saylov marafoni bo‘lib o‘tmoqda. **Yil davomida dunyo aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiluvchi 70 ga yaqin davlatda Prezident va parlament saylovlari o‘tkaziladi.** Yevroparlamentga saylov va Fransiyaning muddatidan oldin parlament saylovi shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda 2023-yili Prezident saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylov jamiyatimizning siyosiy yetukligini, yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor baralla namoyon etdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida katta vakolatlar ega bo‘lgan bo‘ljak parlament saylovi bu borada navbatdagi muhim qadamdir.

Konstitutsiyamizga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi 2024-yil 27-oktabrda parlament saylovini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shu kuni mahalliy vakillik organlariga, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengisi, shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) kengashlari deputatligiga ham saylov o‘tkazildi.

Shu o‘rinda bo‘ljak saylov yangi Konstitutsiyada belgilangan mutlaqo yangicha ijtimoiy-siyosiy sharoitda o‘tatyotgani alohida ahamiyatga egaligini ta’kidlash lozim. Binobarin, keyingi yillarda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilish maqsadida parlament va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, saylov va referendumlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Konstitutsiya va saylov qonunchiligiga muvofiq, mamlakatimizda saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko‘ra, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Unda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida mahrum etilishi mumkinligi belgilangan.

Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Binobarin, O‘zbekiston Prezidenti qayd etganidek, **“Yangi O‘zbekiston — demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do’s-tona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir”**.

Xulosa qilib aytganda, bo‘ljak saylov mamlakatimizda demokratik davlatchilik amal qilayotganligining yorqin namunasi bo‘ladi. Ushbu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayon fuqarolarning saylash va saylanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda, davlat organlarini milliy qonunchilik va xalqaro saylov standartlariga to‘la mos ravishda demokratik tarzda shakllantirishda ham yurtlarimizning yanada faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.



Munosabat



Gulnora MA'RUFOVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi, senator

Boshlanishi 1-betda

Shoshilib ichkari uyimizga kirdim, onam qo'lida dasturxon va non bilan chiqib keldi. “Nima bo'ldi, ayajon, sinfingiz o'quvchilari yig'lab o'tirganini ko'rib, sizga nimadir bo'ldimi, deb qo'rqib ketdim”, dedim onamni mahkam quchoqlab... “Voy, hech narsa bo'lgani yo'q, qizim, ba'zi bir tushunmovchiliklar tufayli sinfimni olib qo'yishdi. Shunga bolalarim norozilik bildiriyapti”, dedi onam siniq jilmayib.

O'sha kuni onam o'quvchilari bilan bir dasturxon atrofida yarim tungacha gaplashib, muhoira qilib o'tirishdi. Men bu o'quvchilarni juda yaxshi taniyman. Chunki onam doim kechqurunnari daftar tekshirib o'tirganida qaysi o'quvchisi chiroyli yozishi, qaysisi she'mi ifodalari o'qishi, qay birining xotirasi kuchliyu qay birining yaxshigina kutubxonasi borligi haqida menga gapirib bergan. Biror marta o'quvchilaridan nolib, ularga qanday dakk bergani haqida o'zidan ham, o'quvchilaridan ham eshitmaganman. Aksincha, sho'x va to'polonchi bolalarni yo'lga solishda

Onam butun bir millat uchun kuyinadigan, yurtimizdagi voqeiliklarni teran aql bilan tahlil qila oladigan mulohazali ayol edi. Bir kuni menga tarixchi G'iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar” asaridagi mana bu ma'lumotlarni o'qib bergan: “Gavharshod Og'a iffat va insofililik sifati bilan maqtagan malika edi va doim oliy barakatli himmatini xayriya imoratlarini qurish va xayr-u ehson ulashish sari qaratgandi.

ODDIY MUALLIMNING DARDI YUKSAKDIR

yoxud Anbar otin orzusidagi xotin-qizlarning yorqin istiqboli

hamma o'qituvchilar onamdan maslahat olar, “Ustoz, to'polonchi bolalar ham sizni yaxshi ko'rishining siri nimada?” deb ko'p so'rashar edi. Onam esa “Men ularning to'polonlarini ham yaxshi ko'raman-da”, der edi kulib...

Xullas, o'sha voqeadan so'ng bolalari maktabga borishni xohlamagani bois, otanalarni maktab direktoriga shikoyat bilan kirdi. Vaziyat jiddiy tahlil qilingach, onam yana o'z sinfga rahbarlik qila boshladi. Shu bilan birga, maktab direktori lavozimiga ham tayinlandi. Eh, o'shanda otanalarning, o'quvchilarning quvonchini bir ko'rsangiz edi...

Onam butun bir millat uchun kuyinadigan, yurtimizdagi voqeiliklarni teran aql bilan tahlil qila oladigan mulohazali ayol edi. Bir kuni menga tarixchi G'iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar” asaridagi mana bu ma'lumotlarni o'qib bergan: “Gavharshod Og'a iffat va insofililik sifati bilan maqtagan malika edi va doim oliy barakatli himmatini xayriya imoratlarini qurish va xayr-u ehson ulashish sari qaratgandi. U qurdirgan binolar jumlasidan poytaxt Hirotning shimol tarafidagi madrasa va jome masjidi hisoblanib, bu imoratlar devorlariga juda go'zal naqshinkor bezaklar berilgan. Mashhaddagi muqaddas imom Rizo maqbarasi majmuasida ham bir muhtasham va nihoyatda chiroyli juma masjidi binosini qurdirgan hamda bu dargohga atab yaxshi yersuv mulki va go'zal asboblarni vaqf qilgan”.

Men bu misollarni eshitganimda kelgusida momolarim kabi bilimli, ziyoli va millatparvar ayol bo'lishni orzu qilganman.

Prezidentimiz ma'ruzalaridan birida “Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e'tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko'rsatayotgani barchamizni quvontiradi”, deya ta'kidlagani e'tirofga molikdir.

Darhaqiqat, bugun xotin-qizlar bilim olishi va zamonaviy loyihalarni amalga oshirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkazilgan bayram tantanasida davlatimiz rahbari soha vakillari bilan shu qadar samimiy muloqot qildiki, aytilgan mulohazalar va yangiliklarni eshitib, quvonganimdan ko'zlarimga yosh keldi. “Siz, hurmatli



Shoiras asar so'ngida umid bilan bunday yozgan:
“...Ul zamonlarda ayollar ilm tahsiliga muayassar bo'ladilar. El va davlat ishlarida qatnashib, erkaklar bilan bir qatorda obro' va hurmatga sazovor bo'ladilar”.

ustozlar, maktab o'quvchilaridan “Men qanday kasb egasi bo'lmochiman?” degan mavzuda insholar, yozma ishlar olasizlar. Lekin o'quvchilar yozgan ana shu ishlar

tahlili bilan kimdir shug'ullanyaptimi?” degan savolni o'rtaga tashlaganida beixtiyor o'qituvchilik faoliyatimdagi eng yorqin damlar yodimga keldi.

Islahotlar amalda

Boshlanishi 1-betda

O'tgan yili birinchi kursda to'liq shu tartibda ta'lim olgan Nurbek Do'syorov joriy yilgi o'quv yilidan kollejiga texnikum maqomi berilganini eshitib yanada mamnun bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-iyuldagi “Yengil sanoat sohasida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda Dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan, Qarshi tumani yengil sanoat kolleji Qarshi dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumiga aylantirildi.

2024/2025-o'quv yilidan boshlab texnikum sifatida faoliyatini boshlagan ta'lim maskanida mehnat bozori talablari hamda ishlab chiqarish korxonalari ehtiyojidan kelib chiqib, malakali dizayner va texnologlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Bu yerda shu kunga qadar dizayner va texnologlar tayyorlashda Germaniya tajribasidan foydalangan holda Xitoyning “LT Textile International” korxonasi, “Cotton Road”, “Temurbek mega tekstil” MCHJlar bilan hamkorlikda dual ta'lim tizimida ip yigiruvchi, texnik-texnolog, dizayner-konstruktor yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgandi.

Texnikumga aylantirilgandan keyin ham bu boradagi ishlar davom ettirib kelinmoqda. Ushbu maskanda mazkur qaror talablaridan kelib chiqqan holda to'qimachilik sanoati tarmoqlari uchun mehnat bozorida raqobatbardosh hamda yuqori malakaga ega o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlanadi. Shuningdek, yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda



HAM O'QIB, HAM ISHLASH IMKONIYATI

qo'shma ta'lim dasturlari asosida to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilishi nazarda tutilgan.

— Endi bu yerda jahon modasining so'nggi tendensiyalarini tadqiq qilish, yengil sanoat buyumlarini istiqbolli modellashirish va turli liboslar kolleksiyasini yaratish, bu borada xorijiy laboratoriyalarni jalb etish va konsalting-maslahat berish, metodik seminar va mahorat darslari tashkil etish rejalashtirilgan, — deydi Qarshi dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumi direktori Yulduz Odilova. — Bugun mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish korxonalari soni yil sayin ortmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik sohasida.

O'z navbatida, ushbu yo'nalishdagi texnologiyalarni tushunadigan va ishlati oladigan xodimlarga talab ham oshmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyatida aynan paxta sanoatini rivojlantirish borasida katta ishlar bajarilmoqda. Bu o'z-o'zidan sohada kadrlarga talabni oshiradi. Misol uchun, yangi ochilgan biror ip-yigiruv korxonasiga ko'p sonli ishchi kerak. Lekin bunday tizimda mehnat qilmagan kishiga birdan ish berib bo'lmaydi. Avval uni o'qitib, ko'nikma hosil qildirib, keyin korxonaga olinadi. Bu esa muayyan vaqt talab etadi. Aynan bizning texnikumda yoshlar ikki kun o'qishda, to'rt kun ishda bo'ladi. Ikki yil o'qib, malakali kadrlar bo'lib shakllanadi.

Ushbu texnikumning avvalgi bitiruvchilari bugun viloyatning 100 ga yaqin korxonasida faoliyat yuritmoqda. 78 nafar yosh hozir ham dual ta'lim asosida o'qib, ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmoqda. Ayni paytda mazkur texnikumda 400 dan ortiq yigit-qiz ta'lim olmoqda.

Bir qaraganda ham o'qib, ham ishlab mushkuldek tuyuladi. Aslida, bunday emas, deydi dual ta'lim asosida o'qiyotganlar.

— Mana, ikkinchi yildiki dual ta'lim asosida yigiruv bo'limida ham o'qib, ham ishlayapman, — deydi Nurbek Do'syorov. — Yirik ishlab chiqarish korxonasi ham shu hududda joylashgan. Ta'lim maskanimiz bilan doimiy hamkorligi bo'lgani bois, korxonada ishlab ketishimda muammo bo'lmadi. Texnikum ham, korxona ham mahallamizda joylashgan. Bu yerda ishlayotganimizda mamnunman. Oilamizga daromad olib kiriyapman. Ishlab chiqarish

majmuasida to'rt kun ishlayman, ikki kun texnikumda o'qiyman. Ishim o'zimga juda yoqadi. Malakali mutaxassislardan ko'p narsa o'rganyapmiz. Shu bois, uskunalarini ishlatishda qiynalmayman.

Qarshi tumanidagi yirik korxonada ham o'qib, ham ishlab kelayotgan o'quvchilardan yana biri — Xurshid Qulmurodov uchun ta'limdagi bu yo'nalish katta imkoniyatlarni taqdim etdi. O'quv maskanida olgan nazariy bilimlarini korxonada amaliyotda o'q'llarkan, o'rganganlari uning malakali mutaxassisiga aylanishiga xizmat qilmoqda.

— Boshida bunchalik imkoniyat bo'ladi deb hech o'ylamagandim, — deydi Xurshid Qulmurodov. — O'qish bilan birga ishlab ancha yaxshi ekan. Sababi tajribali mutaxassislardan nazariy bilim olsak, korxonada ishlab chiqarish jarayonida qatnashamiz va o'rganganlarimizni qo'llaymiz. O'z yo'nalishim bo'yicha ishlayotganimdan xursandman.

Bugun xorij tajribasi asosida texnikumda dizayner va texnologlar tayyorlanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalaridagi malakali chet ellik mutaxassislarni jalb qilgan holda guruhlarda muntazam darslar tashkil etib kelinmoqda. Ahamiyatlisi, bugun dual ta'limni rivojlantirishda chet ellik mutaxassislarni jalb etish va ular tomonidan mahorat saboqlari o'tilishiga e'tibor qaratilayotgani yoshlarning sohani tez va puxta o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, o'quv rejaga ko'ra, yoshlarni xolis tanlov asosida saralab, yirik sanoat (yengil sanoat) korxonalarida tajriba va ko'nikma o'ttiritish, ishlab chiqarish

korxonalari hamda texnologik kompaniyalar imkoniyatini o'rganish uchun 1 oydan 3 oygacha muddatga xorijiy davlatlarga yuborish belgilangan.

An'anaviy o'qitish shaklida o'quvchi ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyotni juda oz soat korxona va tashkilotlarda o'taydi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tajribasidagi ham o'qish, ham ishlashni bir vaqtda olib borish amaliyoti bu yerda ham tatbiq etilayotgani o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda ishlashni nazariy va amaliy jihatdan puxta o'rganish imkonini bermoqda.

Xususan, mamlakatimiz yengil sanoati va to'qimachiligi yo'nalishida tashkil etilayotgan yirik korxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlashda aynan mazkur yo'nalish alohida ahamiyat kasb etib kelmogda.

— Bugun paxta tolasini qayta ishlash uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda, — deydi mazkur texnikumning xodimlar bo'limi boshlig'i Maftuna Xidirova. — Albatta, bu zamonaviy uskunalarini ishlatish uchun doim xorijdan mutaxassis jalb etishning imkoni yo'q. Shu bois, yaratilgan imkoniyatlardan to'liq quvvatda foydalanish uchun talabga javob beradigan mahalliy mutaxassislar bilan ta'minlash lozim bo'lyapti. Dual ta'limni tashkil etishning asosiy sababi ham shu — ishlab chiqarishda o'rnatilgan texnologik jarayonlardan to'liq foydalanish, zamon talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun mutaxassislarimizni dual ta'lim asosida tayyorlamogchimiz. Shu kunga qadar “LT Textile International” korxonasiga

topshirildi. Prezidentimiz bu tadorik mustaqil fikrlaydigan yosh avlod kamolotiga olib boradigan eng to'g'ri yo'l ekanini ta'kidladi.

Farg'ona vodiysidan bo'lganim uchunmi, XIX asrda o'zbek ayollarining hayoti, ayniqsa, Qo'qondagi adabiy muhit, ayollar ta'limi bo'yicha ko'p ma'lumotlar bilan tanishganman. Manbalarda keltirilishicha, shoira, tarixchi, maktabxona maktabdori bo'lib faoliyat yuritgan Dilshodi Barno o'z faoliyati haqida bunday yozgan: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste'dodli shoirlar edi. 51 yil davomida men maktabdori qildim va yiliga o'rtacha 20 nafardan 30 nafargacha o'quvchim bo'lib, 890 nafar qizning savodini chiqardim. Bulardan deyarli to'rtidan bir qismi she'riyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli hamda dono odamlari edilar”.

O'sha davrning eng ilg'or fikrlovchi ayollaridan biri Anbar otin “Qarolar falsafasi” asarining to'rtta faslidan bittasini onalarga bag'ishlagan. Shoira onalarning bashariyat oldidagi yuksak xizmatini quyidagicha ta'riflaydi: “Ul ona shundoq onadur, mohiri donodurki, Aflotun va Arastuni, Abu Ali ibn Sino va Ulug'bekni, Jomiy va Sa'diyni, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Xayyomni, Nodira va Uvaysiyni... meni va seni o'z qomida o'n oy ko'tarib, turli ofatlardan saqlab, yegan g'izosidan rasamat berib, tug'ib, olamni ko'rish qobiliyatiga davru mohir qilibdur”, deb yozgan va afsus bilan “Ulg'ra (ya'ni onalarga) bo'lg'on e'tibor chumoliga bo'lg'on e'tibordan ham kamroqdur”, degan.

Shoira asar so'ngida umid bilan bunday yozgan: “Ul zamonlarda ayollar ilm tahsiliga muayassar bo'ladilar. El va davlat ishlarida qatnashib, erkaklar bilan bir qatorda obro' va hurmatga sazovor bo'ladilar”.

Biz Anbar otinlar, Dilshodi Barnolar, Uvaysiylar, Nodirabegimlar orzu qilgan, bashorat va umid qilgan zamonda, davru davronda yashayapmiz. Shu bois, zamonamiz onalari xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, nafaqat jamiyatdagi o'z o'rinlarini topishda, balki oilasida bilimga tashna, kitobxon avlodni kamolga yetkazishga ham jiddiy e'tibor qaratishlarini so'ragan bo'lardim.

Zero, mutafakkir bobolarimiz va zukko momolarimizdan meros salohiyatini yuzaga chiqarish va dunyoga ko'rsatish, taraqqiyotga xizmat qildirish umumharakatlarimizga bog'liq.

yigiruv texnologiyasi bo'yicha 26 nafar mutaxassis tayyorlab, yo'naltilirildi.

Texnikum rahbariyatining ma'lumotiga ko'ra, bu yerda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) tomonidan ham qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, to'rtta o'quv xonasi to'liq jihozlanib, amaliyot o'tash imkoniyatini beruvchi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ta'minlandi. Endi shu yerning o'zida o'quvchilar ta'lim olish bilan birga, ip-yigiruv sexlaridagi yirik zamonaviy uskunalaridan foydalanishni o'rganishi mumkin.

Istiqbolli dasturga ko'ra, “O'zto'-qimachilikanoat” uyushmasi tomonidan xalqaro tashkilotlar grantini jalb qilgan holda o'quvchilarni to'qimachilik sanoati rivojlangan Germaniya, Italiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston kabi davlatlardagi ishlab chiqarish korxonalariga malaka oshirishga yuborish belgilangan.

Kelgusida bitiruvchilarning kasbiy ko'nikmalari ishi beruvchilar va xolis ekspertlar tomonidan baholanishini tashkil qilish, shuningdek, o'qitish yakuni bo'yicha beriladigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlar xorijiy davlatlarda ham tan olinishi uchun zarur choralar ko'riladi. Bundan tashqari, mazkur texnikumni namunali bitirgan yoshlar tegishli yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim muassasasiga suhbat asosida 3-kursdan o'qishga qabul qilinishi belgilangan. Bu esa o'quvchilarni o'z yo'nalishida puxta bilim olishga undaydi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

QON VA JON EVAZIGA asralgan o‘zlik

o‘zi gumonsiraydigan darajada o‘jiz va qo‘rqoq edi.

O‘sha davrda yuritilgan madaniyat va ilm-fanni nazorat qilish siyosati mamlakatdagi barcha mafkuraviy va madaniy harakatlarning kommunistik partiya to‘qigan cho‘pchaklarga mos va muvofiq bo‘lishini taqozo etardi. Ittifoq tarkibidagi respublikalarda mazkur qolipga tushishni istamagan, xalqining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilgan ilg‘or fikrli ziyolilar oxir-oqibat qatag‘onga duchor bo‘ldi. Millat va elatlarni azaliy ildizidan ayirish orqali yagona sovet xalqini yuzaga keltirishdek ahmoqona g‘oya ham ziyolilarni o‘z xalqini ma‘naviy tanazzuldan saqlab qolish uchun kurashga undadi. Tez orada ular qattol repressiya qurboniga aylandi.

Qizil imperiya barham topgach, “yagona sovet xalqini yaratish” orzusi aslida sarobdan o‘zga narsa emasligi ayon bo‘ldi. Ana shunday og‘ir va murakkab sharoitda ko‘plab fidoyi insonlar o‘z qoni va joni evaziga bo‘lsa-da, jabrdiyda xalqlarning o‘zligini asrab qoldi.

Sho‘rolar qatag‘onidan nafaqat ilg‘or fikrli ziyolilar, balki millionlab oddiy fuqarolar ham jabr ko‘rdi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1937-1953-yillarda birgina O‘zbekistonda 100 mingdan ziyod odam hibsga olinib, millatning 13 mingdan ko‘proq oyдини otib tashlangan. Bunday misli ko‘rilmagan zulm va zo‘ravonliklar alaloqibat jamiyatda shafqatsiz mafkuraviy terror, dahshatli qo‘rquv muhitini yuzaga keltirdi. Ma‘naviy-madaniy hayotni butkul izdan chiqardi.

Sobiq ittifoqdagi katta terror oqibatida jamiyatda soxtalik, tilyog‘lamalik, ikki-yuzlamachilik, shaxsga sig‘inish kabi illatlar chuqur ildiz otdi. Totalitar tuzumni asossiz ulug‘lash, mustamlaka xalqlar o‘tmishini oyoqosti qilish singari tuban holatlar urchidi. Tarix soxtalashtirilib, statistik ma‘lumotlar va jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlar buzib ko‘rsatildi.

Sho‘rolar zulmidan ozod bo‘lgan o‘lkalarda bugun o‘sha davr voqeeligini xolis, adolatlari o‘rganish va asl haqiqatni tiklashga katta ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Zotan, qatag‘on fojialari bugun har bir ongli shaxs uchun juda katta ibrat va saboq vazifasini o‘taydi.

Keyingi chorak asrda O‘zbekistonda sho‘rolar davrida yurt ozodligi, taraqqiyot va ma‘rifat g‘oyalari yo‘lida jon bergan fidoyi ajdodlarimiz bilan bog‘liq tarixiy adolatni tiklash, ularning ibratli ilmiy-ijodiy faoliyatini tadqiq qilish borasida juda katta ishlar bajarildi. Poytaxtimizda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etilib, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil qilingani bu borada muhim qadam bo‘ldi. 2001-yildan buyon yurtimizda har yili 31-avgust Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida o‘tkazilmoqda. Zahmatkash olimlarimiz shu choqqacha yopiq hisoblangan ko‘plab arxiv va manbalarni varaqlab, minglab tarixiy shaxslarning ayanchli qismatiga oydinlik kiritmoqda.

2017-yilning 31-avgustida Prezidentimiz Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga tashrif chog‘ida O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlarining sharaflari hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli vazifalarni belgilab berdi. Shunga



asosan, ushbu muzey hukumat tasarrufiga o‘tkazilib, faoliyati takomillashtirildi hamda yurtimizning barcha hududida filiallari tashkil qilindi. Ayniqsa, ularning tegishli oliy o‘quv yurtlari tuzilmasida ochilgani har jihatdan o‘rinli bo‘ldi. Chunki minglab talabalar deyarli har kuni ana shu maskanlar faoliyati bilan tanishib, o‘zi uchun juda katta tarbiyaviy xulosa chiqarishi shubhasiz. E‘tiborli jihat, hozir bu muzeylar nafaqat talabalar, balki maktab o‘quvchilari va boshqa yurtdoshlarimizning ham sevimli maskaniga aylangan.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari xotirasi abadiylashtirilib, shahar va tumanlarda ularning muazzam haykali o‘rnatilmoqda. Ayni paytda Buxoro shahrida jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil qilinayapti. Qisqa fursatda mamlakatimiz hududlari bo‘yicha 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitobi tayyorlanib, chop etilgani ham yurtimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi.

O‘tgan asrning o‘rtalarida sobiq ittifoq qatag‘oni nihoyasiga yetib, nohaq jazolangan shaxslar birin-ketin oqlana boshladi. Afsuski, ularning aksariyati allaqachon otib tashlangan yoki olis o‘lkalardagi qamoqxona va lagerlarda mislsiz azob-uqubatlarga dosh bermay halok bo‘lgan edi. Odamlar jillaqursa o‘z yaqinlarining nomi oqlanganidan taskin topib, shu bilan qanoatlanishga majbur bo‘ldi. Lekin shu ish ham oxiriga yetkazilmay, minglab begunoh insonlarga o‘qilgan soxta hukmlar bekor qilinmay qolib ketdi.

So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda bu borada tarixiy adolatni qaror toptirish bo‘yicha ham misli ko‘rilmagan ishlar bajarilmoqda. Birgina



keyingi to‘rt yilda Oliy sud tomonidan 1200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qyrbonining ishi qayta ko‘rib chiqilib, nomi, sha‘ni va sharaflari oqlangani buning isbotidir. Muhimi, mazkur jarayon mamlakatimiz jamiatchiligini tomonidan katta qiziqish va e‘tibor bilan kuzatib borildi hamda sudning adolatlari qarori xursandchilik bilan kutib olindi.

Prezidentimizning shu yil 19-iyulidagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarorida yangi, salmoqli vazifalar belgilandi. Bundan buyon qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarni nomma-nom aniqlab, hayoti



va faoliyatini atroflicha yoritish maqsadida turli arxivlar, muzeylar, kutubxonalar va fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni tizimli tadqiq qilish yo‘lga qo‘yildi. Ularning avlodlari va yaqinlari, o‘sha mash‘um voqealarga shaxsan guvoh bo‘lganlarning xotirasi yozib olinadi.

Qatag‘on qurbonlarining hayoti va merosini chuqurroq o‘rganish uchun xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish ham amalda yaxshi natijalar beradi. Shu asosda tegishli muzeylar qatag‘on qurbonlari va jadidlar faoliyatiga oid ashyoviy dalillar hamda ekspozitlar bilan muntazam boyitib boriladi.

Asosiysi, hurlik, adolat yo‘lida jon fido qilgan ajdodlarimizni yoshlarga yaqindan tanitish, shunday ulug‘ insonlar xotirasiga yuksak hurmat va ehtirom ruhida tarbiyalash maqsadida tizimli ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bajariladi. Bunday ma‘lumotlarni yoshlarga zamonaviy shakllarda taqdim etish chorasi ko‘riladi.

Joriy yildan e‘tiboran O‘zbekistonda oktabr oyining birinchi haftasi Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi etib belgilangani juda katta ahamiyatga ega. Ayni



kunlarda mamlakatimizdagi ko‘plab ta‘lim muassasalari, mahalla va tashkilotlarda o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy va xotira tadbirlari xalqimizni, yoshlarimizni ana shunday fidoyi ajdodlarimizning sharaflari hayot yo‘li, hurlik va adolat haqidagi orzu-armonlari bilan yanada yaqinroq tanishtirishga xizmat qiladi.

Avazbek ShERMATOV,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

O‘G‘LINING O‘QISHINI ISTAMAGAN OTA, ORDEN-MEDALLARIDAN VOZ KECHGAN MAHBUS HIKOYASI

Nodir komandirning “dum”i

Qatag‘on mashinasi hatto o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan kishilarni ham ayab o‘rtimadi. Qoratepalik Nodir Pardayev hayotini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. El-ulus orasida Nodir komandir deb nom olgan bu shaxs ham oxir-oqibat yo‘q qilindi.

Qoratepa qishloq sho‘rosi raisi bo‘lgan va Sanchiqul qishlog‘ida yashagan Mahmatqobil Avazov qatag‘on yillarining begunoh qurbonlaridan. Mahmatqobil boboning xotini Karomat momo boshqa turmushga chiqmadi. Qizlari Bibisora va Ilaypani oq tarab, oq yuvib voyaga yetkazdi. Umrlarining oxirigacha turmush o‘rtog‘ining yo‘liga ko‘z tikib yashadi.

Ayniqsa, sanchiqullik uch aka-uka Abdusalom, Abdusattor va Abduvahob Suyunovlarning taqdiri o‘ta ayanchli kechdi. Ularning 9 kishidan iborat oilasi shimoliy Qozog‘iston dasthlariga badarg‘a qilindi va oradan yillar o‘tib, faqat birgina Jovli Suyunov tug‘ilgan qishlog‘iga qaytib keldi. Eng qizig‘i, Jovli bobo O‘zbekiston xalq baxshisi, jahonshunos Shomurod baxshi Tog‘ayevning oilasi bilan surgunda birga bo‘lgan va ular o‘sha og‘ir yillarda aka-uka tutingan.

— Onamning akasini Chorshanbi chavandoz degich edi. Katta to‘ylarning ko‘pkarisi Chorshanbi chavandozsiz o‘tmasdi. Sho‘ro hukumati tog‘amni o‘ziga yarasha mol-mulki, ya‘ni to‘rt-besh bosh qo‘y-echkisi, sigiri va oti borligi uchun quloq qilib Sibirga haydagan. Shu-shu u yurtiga qaytib kelmagan, — deydi mehnat faxriysi Berdiqobil Xudoyqulov.

Yuqorida nomi zikr etilgan jabrdiydalarning barisiga Nodir komandirning “dum”i degan soxta ayb qo‘yilgan.

Aybsiz aybdorlar

Chim qishlog‘ida yashagan Hazratqul Hakimovning ayanchli taqdiri haqida o‘g‘li Maksim Hakimov bunday hikoya qiladi:

— Otam Hazratqul Hakimov 1889-yilda tug‘ilgan. Bobom Hakim Yusupov xat-savodli bo‘lgani bois, o‘g‘illarini ham o‘qitgan. U dastlabki saboqni uyda olgan. So‘ngra Qarshi va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirgan. Otam xat-savodli bo‘lgani uchun Chiroqchi tumanida revkom va sudya bo‘lib ishlagan. Uni 1937-yil 10-dekabrda “quloqning bolasi, inqilob dushmani” degan ayb bilan qamoqqa olib, Kitob tumanidagi qamoqxonada saqlashdi. So‘ngra Sibirga jo‘natib yuborishdi. O‘sha paytlarda yosh bola edim, ulg‘ayib xat-savodli bo‘lgach, otam haqida ko‘p surishtirishlar, yozma so‘rovlar qildim. Mana o‘sha so‘rovnomamga berilgan javobning biri: “Tojikiston SSR Davlat xavfsizligi komiteti. 25.05.89. 9/4563, Dushanbe.

O‘zbekiston SSR, Qashqadaryo viloyati, Chim qishloq sovetida yashovchi Hakimov M.H.ga.

Sizning arizangizga asosan ma‘lum qilamizki, Hakimov Hazratqul Tojikiston SSR NKVD URG uchlignining 1937-yil 10-dekabrdaqi qaroriga asosan, aksilinqilobchilik harakatiga qo‘shilganligi uchun qamoqqa olingan.

“30-40- va 50-yillarining boshida repressiya qurbonlari bo‘lganlar bilan bog‘liq hujjatlarni o‘rganish va ularning nomini tiklash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonga asosan, 1994-yilda Tojikiston SSR prokurori u bilan bog‘liq jinoyat ishi hujjatlarini ko‘rib chiqdi va oqlanganini ma‘lum qiladi. Tojikiston SSR KGB bo‘lim boshlig‘i S.Kamolov”.

Ayanchli taqdir

Ikkinchi jahon urushidagi janglarning birida oddiy askar Juma Xushvaqov asir tushadi. Uni amerikalik ittifoqdoshlar dushman zulmidan ozod qiladi. Juma yurtiga qaytishni istardi. Ammo o‘sha yillarda asir bo‘lganlarga nisbatan “xoin” degan hukm chiqarilgan edi. Shu bois, yurtiga qaytishga Jumaning ham yuragi dov bermaydi.

Lekin vatan sog‘inchi ustunlik qiladi. Jumani chegaradan o‘tishi bilan hibsga olishadi. Uzoq Sharqdagi Vladivostok shahriga olib kelishadi va 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishadi.

Jazoning muayyan muddatini o‘tagandan so‘ng unga Amur va Xabarovsk o‘lkasida yashashga ruxsat berishadi. Ammo O‘zbekistonga borishga izn berishmaydi. Juma begona yurtda uylanib, ikki o‘g‘illi bo‘ladi. Nihoyat 1962-yilda unga Ko‘kbuloqdagi ona qishlog‘i Chuqurliga kelishga ruxsat beriladi. Uni qarindosh-urug‘lari katta xursandchilik bilan kutib oladi. Lekin Jumaning ko‘zlari otasi mulla Xushvaqtni va onaizori Qambar Yuzboy qizi hamda singillarini qidirayotgan edi. Oxiri u



atrofidagilardan ota-onasini so‘raydi.

— Ota-onam bu yorug‘ olamdan o‘tganmi? — Yo‘q, — deydi qishloq sho‘rosi raisi Niyofov. — Otang tirik, onang esa sendan “qora xat” kelgach, ayirilgini ko‘tara olmadi...

— Rajabboy! — deya yigitlardan birini yoniga imlaydi rais. — Otni minib, to‘g‘ri Chilikgazadagi bug‘doyzorga bor va mulla Xushvaqtni olib kel. Ammo esingda bo‘lsin, zinhor “o‘g‘lingiz keldi”, degan gapni ayتما. O‘zimiz yo‘lini qilib, yotig‘i bilan ko‘rishiramiz.

Ammo Rajabboy siri oshkor qilib qo‘ydi. Bu xushxabarni eshitgan otaning yuragi dosh bermadi. Quvunch motamga aylandi. Juma otasini o‘z qo‘li bilan dafn etib, yetti kundan so‘ng Uzoq Sharqqa jo‘nab ketadi.

Shundan keyin ham u xotini va o‘g‘illari bilan qishlog‘iga uch marta keladi. Juma Xushvaqov oxirgi kelishida ana mung‘ayib qolgan, rangi zahil tortib, asirlik azoblarini ta‘sirini o‘tkazgani bilinib turar edi. U ketar chog‘ida ota-onasi yotgan qabristondan bir siqim tuproq olib ketadi va boshqa qaytib kelmaydi.

Nikoh o‘qigani uchun...

— Otam mulla Ibrohim Shernazar o‘g‘li Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan, — deya so‘zlaydi Ismoil hoji Ibrohimov. — Otam sho‘rolar hokimiyati tepasiga kelgach, savodli bo‘lgani uchun hukumat ishiga jalb

qilingan va Chiroqchi tumani moliya idorasini boshqargan.

Elliginch yillar boshida uyimizga to‘pponcha taqqan kishilar kelib otamni olib ketdi. Keyin bilsak, otamning ustidan chaquv xati yozilgan, unda otam Abil va Xoldon degan ikki yoshning to‘yida eskicha nikoh o‘qigani bayon qilingan ekan. Axir nikohsiz oila qurib bo‘ladimi? Chaquv xatini esa begonalar emas, qishloqdoshlarimiz yozgan. Otam uch yil Qarshi va Ashxobod qamoqxonasida yotdi. Men o‘shanda 11-12 yoshlardagi bola edim. Onam bilan ikki bora otamni ko‘rgani borganim yodimda. Nihoyat qattol Stalin vafot etgach, otam qishloqqa qaytib keldi. Uyimizda arab va fors tilida yozilgan kitoblar ko‘p edi. Lekin otam menga eskicha ilmini o‘rgatmadi. Bunga balki ilmi bois boshiga tushgan achchiq savdolar sabab bo‘lgandir...

Alam va xo‘rlilik

— Otam Bolta Sarmatov sho‘rolarning g‘oyalariga ishongan, tuzumning faoli bo‘lgan. Jamoa xo‘jaligini tuzish, savodsizlikni tugatish



kabi ishlarda faol qatnashgan. Chiroqchi tumani ichki ishlar bo‘limi zobiti lavozimida xizmat qilgan. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan. Yarador bo‘lib uyga qaytdi. Sog‘lig‘i tiklangach, yana frontga ketdi. Kynionsberg shahri uchun kechgan shiddatli jangda og‘ir yarador bo‘ldi. O‘tgan asrning 50-yilida otamni qamashdi. Aybi nima ekanini otam bizga aytmagan. 1953-yildagi afv tufayli uyga qaytdi.

Otam doim miskin kayfiyatda yurardi. Bunga o‘zi jon berib, jon olgan tuzumdan ko‘targan azoblari, xo‘rlanishlari sabab bo‘lgandir. Qamoqdan qaytib, barcha orden-medallarini, maqtoov yorliqlarini yo‘q qilib tashlab, hukumat bergan barcha imtiyozlardan voz kechib, bozorda savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘ldi, — deydi faxriy qurovchi Bekjon Boltayev.

Qatag‘on yillari minglab yurtdoshlarimiz taqdirida ana shunday qonli izlarini qoldirgan. Sobiq tuzumning qattol mashinasi xalqimizning asl ildiziga bolta urishga, uni quritishga urindi. Shukrki, oqqan daryo oqaveradi! Bugun mustaqil yurtning ozod odamlari, yoshlari ajdodlariga munosib avlod bo‘lish yo‘lidan bormoqda. Shu jarayonda tarixni eslash, o‘tganlarni yod etib, ularga munosib avlod bo‘lishga intilish muhim. Illo, moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir...

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi